




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



**PROFESSOR ABDURAUF FITRATNING ADABIY-ILMIY VA
IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATI JAHON JADIDSHUNOSLARI
TALQINIDA**

**INTERPRETATIONS OF PROFESSOR ABDURAUF FITRAT’S
SCIENTIFIC, LITERARY, AND SOCIO-POLITICAL LEGACY
BY INTERNATIONAL SCHOLARS OF JADIDISM**

**XALQARO ILMIY ANJUMAN
TOSHKENT – O‘ZMU**

2026, 15-may



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

MICHIGAN DAVLAT UNIVERSITETI (AQSH)

ANQARA DAVLAT UNIVERSITETI (TURKIYA)

**OZARBOYJON MILLIY ILMLAR AKADEMIYASI
NIZOMIY NOMIDAGI ADABIYOT INSTITUTI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

**PROFESSOR ABDURAUF FITRATNING ADABIY-ILMIY VA
IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATI JAHON
JADIDSHUNOSLARI TALQINIDA**

**НАУЧНО-ЛИТЕРАТУРНАЯ И ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРОФЕССОРА АБДУРАУФА ФИТРАТА В
ИСТОЛКОВАНИИ ДЖАДИДОВЕДОВ МИРА**

**INTERPRETATIONS OF PROFESSOR ABDURAUF FITRAT’S
SCIENTIFIC, LITERARY, AND SOCIO-POLITICAL LEGACY BY
INTERNATIONAL SCHOLARS OF JADIDISM**

XALQARI ILMIY ANJUMAN MATERIALLARI

TOSHKENT – O‘ZMU

2026, 15-may

UO‘K: 821.512.133.1

KBK 82.3(50‘)

“Professor Abdurauf Fitratning adabiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati jahon jadidshunoslari talqinida” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2026. – 490 b.

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida o‘tkazilgan “Professor Abdurauf Fitratning adabiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati jahon jadidshunoslari talqinida” mavzusidagi ulug‘ olim tavalludining 140 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari olti bo‘limdan iborat bo‘lib, uning har bir bo‘limida Abdurauf Fitrat ijodi va faoliyatining muqaddasiy qirralari o‘z aksini topgan. 70 dan ortiq maqolalarni o‘z tarkibiga olgan mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, mutaxassis va tadqiqotchilar, doktorant va izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrirlar:

Hamidulla BOLTABOYEV – filologiya fanlari doktori, professor;

Minhojiddin HOJIMATOV – filologiya fanlari doktori

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:

D.Qozoqboyeva, H.Boltaboyeva, H.Mahkamova

Taqrizchilar:

Temur XO‘JA O‘G‘LI – filologiya fanlari doktori, professor;

Ilhom G‘ANIYEV – filologiya fanlari doktori, professor

Mazkur Materiallar O‘zMU Ilmiy-texnikaviy kengashining 2026-yil
30-apreldagi majlisida nashrga tavsiya etilgan (4-sonli bayonnoma)

ISBN 978-9943-6085-5

© O‘zbekiston milliy universiteti, 2026

© MUMTOZ SO‘Z, 2026

MUNDARIJA

YALPI MAJLIS

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI REKTORI I.U.MADJIDOVNING KIRISH SO‘ZI.....	7
<i>Prof. Dr. Yusuf AVJI. Fitrat‘in sosial hayati ve siyasi g‘orushleri.....</i>	<i>9</i>
<i>Dr. Minhojiddin HOJIMATOV. Abdurauf Fitrat ijodiida milliy o‘zlik tuyg‘usining badiiy in‘ikosi.....</i>	<i>18</i>
<i>Prof. Dr. Mehman HASANLI. Ebdurrauf Fitratin dramaturgiyasinda istiqlal va milli kimlik problem.....</i>	<i>22</i>
<i>Prof. Dr. Seyfettin ERSAHIN. Abdurauf Fitrat‘in “Turk-rus ittifaki” teklifi.....</i>	<i>30</i>
<i>Prof. Dr. Yashar QOSIM. Yangi O‘zbek shye‘riyatida shaxsga sig‘inish davri fojialarining in‘ikosi.....</i>	<i>51</i>
<i>Prof. Dr. Tanju SEYHAN. Abdurrauf Fitrat‘in Dil ve Cagatayca Terimi Uzerine Dushunceleri, Kadimki Eserlerle Ilgili Bazi Calismalari.....</i>	<i>59</i>
<i>Prof. Dr. Sulayman DOGAN. Abdurauf Fitrat‘in Islam Tarihi ve Musluman Ailesi uzerine degerlendirme.....</i>	<i>81</i>
<i>Prof. Dr. Ilhom G‘ANIYEV. Uilyam Shekspir va Abdurauf Fitrat dramalarida intertekstuallik.....</i>	<i>92</i>
<i>Prof. Dr. Nurboy JABBOROV. Fitrat ijodida ma‘rifat va jaholat talqini.....</i>	<i>98</i>
<i>Dr. Bahrom IRZAYEV. Buxoro amirligida “Sho‘ro inqilobi” yoxud “Yosh buxorolilar” faoliyati haqida yangi materiallar.....</i>	<i>103</i>
<i>Prof. Dr. Ulug‘bek HAMDAMOV. Fitrat – jadidchilik harakatining ulkan namoyandasi.....</i>	<i>109</i>
<i>Dr. Yasin YAYLA. Abdurrauf Fitrat‘in Turk Dili ve Egitimine Katkiları.....</i>	<i>120</i>
<i>Prof. Dr. Женисбек ДУЙШЕЕВ. Абдурауф Фитрат – историк Турана.....</i>	<i>126</i>

1-sho‘ba. JADIDCHILIKNING UMUMIY

MASALALARI VA FITRATNING SIYOSIY FAOLIYATI

<i>Prof. Dr. Makhliyo UMAROVA. Abdurauf Fitrat: in the Heart of East-West Intellectual Discourse.....</i>	<i>129</i>
<i>Prof. Dr. Dilshod KOMOLOV. Jadidchilik harakati va Turkistonda odil sudlov institutlarini shakllantirish masalalari.....</i>	<i>134</i>
<i>Dots. Dr. Farrux TEMIROV. Sadriddin Ayniy – alloma Fitrat haqida.....</i>	<i>137</i>
<i>Dots. Dr. Ulug‘murod AMONOV. Abdurauf Fitratning Buxoro shashmaqomini yozib olinishidagi xizmati.....</i>	<i>143</i>
<i>Dots. Dr. Nigina SULTONOVA. Buxoro adabiyot tarixi muzeyi ko‘rgazmasida jadidlar merosi: Abdurauf Fitrat faoliyati talqini.....</i>	<i>147</i>
<i>Dots. Dr. Sherxon QORAYEV. Abdurauf Fitrat asarlarida shayboniy Ubaydullaxon ijodi va jahriy zikr majlislari talqini.....</i>	<i>153</i>
<i>Dr. Mashhuraxon DARMONOVA. Abdurauf Fitratga doir manbalar tavsifi.....</i>	<i>158</i>
<i>Gulnoz MUROTOVA. Fitrat faoliyatining Markaziy Osiyo tarixshunosligidagi o‘rni: manbashunoslik, tarixiy tafakkur va milliy tarix konsepsiyasi.....</i>	<i>163</i>

<i>Marvar SHARAFUTDINOVA. Джадид, просветитель и выдающийся филолог.....</i>	172
<i>Anvar TOSHBOYEV. Jadidchilikning umumiy masalalari va Fitratning siyosiy faoliyati.....</i>	178
<i>S.AHMADOV, A.AHMADOV. “Yosh buxorolilar”ning siyosiy faoliyati va Fitratning ishtiroki.....</i>	182

2-sho‘ba. FITRAT BADIY IJODI VA UNING TALQINI MASALALARI

<i>Prof. Dr. Abdulla ULUG‘OV. Alloma Abdurauf Fitrat.....</i>	185
<i>Prof. Dr. Mavluda ERGASHEVA. Abdurauf Fitrat asarlarida vatanparvarlik va mustaqillik g‘oyalari talqini.....</i>	191
<i>Dots. Dr. Xurshida JALILOVA. Abdurauf Fitratning “Hind sayyohi bayonoti” sayohat tipidagi asar sifatida.....</i>	196
<i>Dots. Dr. Dilrabo QOZOQBOYEVA. Fitratning forsha tarkibbandi mumtoz janrlar kontekstida.....</i>	208
<i>Dots. Dr. Manzura JO‘RAYEVA. Abdurauf Fitrat ijodida safarnoma janri va uning taraqqiyoti.....</i>	216
<i>Dr. Xurshida BAROTOVA. Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohi bayonoti” asarida kasb-hunar va hunarmandchilikka munosabat.....</i>	220
<i>Dots. Dr. Dilafro‘z JABBOROVA. Fitrat dramalari poetikasi: Ilhom G‘aniyev tadqiqotlari talqinida.....</i>	228
<i>Dr. Maftuna SHOMURODOVA. Jadid adabiyoti taraqqiyotida Ayniy va Fitrat o‘rni.....</i>	233
<i>Dildora SAIDOVA. Fitrat va Cho‘lpon ijodida lirik qahramon timsolining uyg‘unligi.....</i>	238
<i>Munisa G‘ULOMOVA. Fitratning imloshunos shogirdi – Xolid Saidning tarjima maktabi.....</i>	243
<i>Mushdariy TOJIYEVA. Fitrat dramalarida tarixiylik konsepsiyasi.....</i>	250
<i>Sadoqat NORMAXMATOVA. Abdurauf Fitratning “Qiyomat” hikoyasida intertekstuallik unsurlari.....</i>	254
<i>Hayotxon YAVKACHEVA. Abdurauf Fitratning ilk ijodida jadidchilik g‘oyalari.....</i>	259
<i>Shahodat O‘SAROVA. Abdurauf Fitratning “Qiyomat” hikoyasi talqini.....</i>	263
<i>Zulfiya YO‘LDOSHOVA. Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyatining ilmiy va badiiy ijodi bilan uyg‘unligi.....</i>	267

3-sho‘ba. JADID PUBLITSISTIKASI VA FITRATNING MA‘RIFATCHILIK FAOLIYATI

<i>Dots. Dr. Shahlo HOJIYEVA. Fitrat va ma‘rifatchilik g‘oyalari.....</i>	272
<i>Dots. Dr. Hamza JO‘RAYEV. Turkistonda milliy ta‘lim omili (Abdurauf Fitrat misolida) milliy uyg‘onish bosqichlari.....</i>	276
<i>Dots. Dr. Azimjon DAVRONOV. Abdurauf Fitrat – siyosiy publitsist.....</i>	281
<i>Dots. Dr. Nilufar MO‘MINOVA. Abdurauf Fitrat va Abdurahmon Sadiy qo‘llanmalarida adabiyot nazariyasi masalalari.....</i>	287
<i>Dots. Dr. Gulrux JO‘RABOYEVA. Abdurauf Fitrat publitsistikasida til masalalari.....</i>	292

<i>Xolboy ABDURAHMONOV. Ahmad Donish va Fitrat qarashlarida milliy uygʻonish bosqichlari.....</i>	300
<i>Ilxomjon ABDULLAYEV. XX asr boshlarida namanganda jadid matbaachiligi va matbuot.....</i>	303
<i>Dr. Hulkar MAHKAMOVA. Mehmet Akif Ersoʻy va Abdurauf Fitrat asarlarida maʼrifatga najot yoʻli sifatida qaralishi.....</i>	309
<i>Shavkatjon VOSITOV. Fitrat ijodida milliy taraqqiyot va maʼrifat masalalari.....</i>	319
<i>Shamsiyo BOLTABOYEVA. Abdurauf Fitrat publitsist va “Hurriyat” gazetasining muharriri.....</i>	325
<i>Shoxijahon URUNOV. Jadidchilik davridagi “Usuli jadid” taʼlim tizimi va Abdurauf Fitrat pedagogik merosining bugungi raqamli taʼlimdagi dolzarbligi.....</i>	335
<i>Shahinabonu RASULOVA. Fitratning oila borasidagi qarashi va milliy taraqqiyot masalasi.....</i>	342

4-shoʻba. FITRATNING ADABIYOTSHUNOSLIK MEROSI VA JADID TANQIDCHILIGI

<i>Prof. Dr. Nodira AFOQOVA. Abdurauf Fitrat sheʼr vaznlari xususida.....</i>	348
<i>Prof. Dr. Shoiraxmedova. Abdurauf Fitrat va adabiy tanqid janrlari.....</i>	356
<i>Prof. Dr. Nodirxon HASANOV, Xayriniso ULUGʻNAZAROVA. “Hibat ul-haqoyiq” bilan “Devoni hikmat” orasidagi mavzu mushtarakliklari.....</i>	364
<i>Prof. Dr. Orzigul HAMROYEVA. Fitrat – aruzshunos.....</i>	372
<i>Hilola BOLTABOYEVA. Abdurauf Fitratning tahlil anʼanalari Erkin Vohidov ijodida (Alisher Navoiy gʻazallari talqinlari misolida).....</i>	378
<i>Nodir GʻAFUROV. Oʻzbek tasavvuf adabiyoti Fitrat talqinida.....</i>	382
<i>Dildora INOGʻOMOVA. Fitrat – xamsashunos.....</i>	388
<i>Xurshida YULDASHEVA. Abu Ali ibn Sino va Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari.....</i>	392
<i>Ozodbek RAVSHANOV. Fitrat va mashrabshunoslik.....</i>	395
<i>Marjona JOʻRAQULOVA. A.Fitratning “Adabiyot qoidalari” va M.Shayxzodaning “Adabiyot nazariyasi” qoʻllanmalarining tavsifiy tahlili.....</i>	400
<i>Fazliddin UTAGANOV. Professor Abdurauf Fitrat – “Devonu lugʻati-t-turk”ning ilk tadqiqotchisi.....</i>	408
<i>Dildora HUSANOVA. Ruboiy vazni xususida Abdurauf Fitrat qarashlari (“Aruz haqida” risolasi).....</i>	412
<i>Diyorbek NORMURODOV. Abdurauf Fitratning ijtimoiy adolat va davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari.....</i>	419
<i>Sanobar SULTONOVA. Fitratning hikoya janriga oid qarashlari va zamonaviy oʻzbek hikoyachiligi.....</i>	424

5-shoʻba. FITRAT ADABIY MEROSINING JAHON KONTEKSTIDA OʻRGANILISHI VA TILSHUNOSLIK MASALALARI	
<i>Prof. Dr. Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdurauf Fitratning adabiyotshunoslik faoliyati va uning xalqaro miqyosda oʻrganilishi.....</i>	429

nuqtalarni, ayrim o'zgarishlarni ko'rsatishga urunmayman, uzoqqa cho'ziladir. Biroq, shu maqola uchun juda kerak o'lg'an bir nuqtani qayd qilib ketaman. Xusrav Dehlaviyga ko'ra, Farhod Chin xoqonining o'g'li bo'lg'an. Saroy toshchilarining ishlariga havas qilib, toshchilikni o'rgangan. Otasi uning bu ishidan xabar olg'ach, uni o'lkadan quvg'an. U g'ariblikda yurar ekan, Shiringa uchrag'an... Xusravdan so'ngra ham taqlid davom qildi. Fors adabiyotida ko'p "Xusravu Shirin"lar yaratildi. Hech biri (Xusrav Dehlaviy asari ham) Nizomiy asari darajasida chiroyli va usta chiqmag'ani uchun uning darajasida muvaffaqiyat ham ko'ra olmadi. Navbat XV asrning mashhur chig'atoy shoiri Alisher Navoiyga keldi. Navoiy Nizomi(y) bilan Xusrav Dehlaviyning "Xusravu Shirin" dostonlariga o'xshatmay yozmoq istaginda boshlab, mazkur asarni tanqid ko'zidan kechirdi va dostonning ular tomonidan qabul qilingan shakliga rozi bo'lmadi:

Vale chekkanlar ushbu jomdin roh,

Sarosar bo'ldilar Xusravg'a maddoh..." [Fitrat, 1930:17]

Fitrat e'tiborni Navoiy dostoniga qaratmoq uchun ungacha bo'lgan har ikki asarni ham umumiy planda ko'zdan kechiradi. Navoiy doston syujetiga olib kirgan yangilik sifatida Farhodning bosh obraz darajasiga ko'targanini ta'kidlaydi. Fitrat yozadi: "Holbuki, ular mana shu odamni maxtaylar. Asarlarining buyuk bir qismi shu odamni maqtashdan to'lgan, zotan, asarlarining maqbul bosh qahramoni ham shul. ...Navoiy mana shu yo'lda tushunib, yangi bir asar yozishga qaror beradir. Bu asarning oti Nizomiy va uning taqlidchilarining asarlari kabi "Xusravu Shirin", "Shirinu Xusrav" emas, "Farhodu Shirin"dir [Fitrat, 1930:17].

Asarning bosh qahramoni bo'lgan Farhod timsolida Navoiy komil insonni ko'radi. Ilmda, iste' dodda, botirlikda, kuchda juda kamolga yetishganini uning har bir harakati bilan, har ishi bilan isbot etmakchi bo'ladi. Bunday mukammal shaxs afaqt podshohlar saroyida tarbiya topigi mumkin, shuning uchun ham avvalgi dostonlardagi oddiy tosh yo'nuvchi Farhodni Navoiy shahzoda qilib ko'rsatadi. Fitrat "Navoiy bo'yicha hikoya tubandagichadir" deb dostonning asosiy syujetini qisqa bayon qilib beradi. Sh undan so'ng Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonini tahlil qila boshlaydi: "Ham dostonni boshqa shaklga solib, "Farhodu Shirin" ismi ostida ishlab chiqardi. Navoiy birinchi daraja qahramon qilib, Farhodni oldi, Navoiy voqeani Chin o'lkasi bilan Armaniston orasida tushunadir. Hatto Shirinning arman qizi ekanini juda ochiq yozadir. Navoiyning bu ishlariga Nizomiy bilan Xusrav Dehlaviyning Farhodni Chinga nisbat berishlari, albatta, katta yordam qildi".

Fitrat tahlilda Farhod uchun to'rt qasr qurilishi, Xusrav bilan Farhod o'rtasidagi dialogga alohida ahamiyat beriladi. Fitrat Farhodni faqat ilmu hunarda emas, balki tafakkur va munozarada ham Xusravdan usutun ekaniga maqolada alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, Fitrat ushbu dostonning turk adabiyotida yetakchi bir o'rin tutishini uning keyingi davr adabiyotiga ta'siri orqali tushuntiradi: "O'rta Osiyo turklari orasida bu dostonning Navoiydan burun qaysi darajada mashhur bo'lg'ani haqida qo'limizda material yo'q. Har holda Navoiydan keyin bu dostonning bizda juda shuhrat topib, ko'b o'qulg'ani onglashiladir" [Fitrat, 1930:17].

Xulosa.

Fitrat "Farhodu Shirin" to'g'risida" maqolasi orqali o'zbek adabiyotshunosligi uchun muhim bo'lgan bir qator masalalarni hal qilib berganini ko'ramiz. Birinchidan, Alisher Navoiyning shoh asari bo'lgan "Xamsa"ning turkiy xalqlar adabiyotidagini o'rnini ko'rsatib, Navoiy "Xamsa"si birgina turkiy adabiyotda emas, balki butun xamsachilikda ustun ekanligini asoslab berdi. Ikkinchidan, ushbu maqolada Nizomiy, Dehlaviy va Navoiy asarlarini qiyosiy tahlil qilib,

adabiyotshunoslik uchun muhim bo'lgan qiyosiy-tipologik tahlil metodikasini ishlab chiqdi. Uchinchidan, "Farhod va Shirin" dostoni o'zining tarixiyligi va doston voqealarining qadimgi Turkiston tuprog'ida ko'rsatilishi orqali bu syujet turkiy xalqlar madaniyati va ma'naviyatida muhim o'rin olganini isbotladi. To'rtinchidan, doston qahramonlarining tadrijiy obraz sifatidagi takomilini ko'rsatib, bu bilan Navoiy badiiy dahosining ustuvor jihatlarni aniqlab berdi. Beshinchidan, bu doston o'z davrida O'rta Osiyo turklari uchun emas, balki butun Movarounnahr, Xuroson, Chinu Mochin xalqlari adabiy qahramonlarini birlashtiruvchi, xalqlar o'rtasida do'stlik va tinchlikni targ'ib etuvchi buyuk doston darajasida ekanligini isbotlab berdi.

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayratu-l-abror / MAT. 7–tom. – Toshkent: Fan, 1999.
2. Boltaboyev H. Fitratning adabiy-estetik qarashlari jadid adabiyotshunosligi kontekstida. Monografiya. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2024.
3. Fitrat A. Insoniyat haqida Navoiyning fikri. – T.: Musulmon Ishtirokiyun firqalarining o'lka byurosi huzuridagi nashriyot sho'basi, 1919. – 19 b. // Sirli olam. – 1991. – 2-son. – B. 6–8 (qisqa nashr. Sh. Turdiyev).
4. Fitrat A. Navoiyning forsiy shoirlik'i ham uning bir forsiy devoni to'g'risida // Maorif va o'qitg'uchi. – 1925. – № 12. – B. 38–41.
5. Ayniy S. Navoiy va tojik adabiyoti / Ulug' o'zbek shoiri. Maqolalar to'plami. – T.: 1948. – B. 198–211.
6. Fitrat A. "Farhodu Shirin" dostoni to'g'risida // Alanga. – 1930. – 1 son. – B. 14–17, – 2 son. – B. 9–14.
7. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. I kitob. – T.: 1968. – B. 29, 131, 312–313.
8. Fitrat A. XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash // Alanga. – 1929. – 8 / 9 son. – B 6–8.

ABU ALI IBN SINO VA FITRATNING ADABIYOTSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI

*Yuldasheva Xurshida Xamidullayevna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
+998909564210
yuldashevaxurshidamimix2s@mail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdurauf Fitrat va Abu Ali ibn Sinoning adabiyotshunoslikka oid qarashlari qiyosiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Fitratning "Adabiyot qoidolari" asaridagi badiiy asar tuzilishi, uslub, ifoda va janr masalalari Ibn Sinoning "She'r san'ati" risolasidagi poetik konsepsiyalar bilan uyg'unlikda ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida Fitrat qarashlarining Sharq poetik tafakkuri an'analari bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *Fitrat, Ibn Sino, poetika, uslub, ifoda, janr, she'r, badiiy nutq, adabiyotshunoslik*

Аннотация. В статье проводится сравнительно-теоретический анализ литературоведческих взглядов Абдурауфа Фитрата и Абу Али ибн Сины. Рассматриваются вопросы структуры художественного произведения, стиля, жанра и выразительности в сопоставлении с поэтической концепцией ибн Сины. Делается вывод о преемственности взглядов Фитрата с классической восточной поэтикой.

Ключевые слова: *Фитрат, Ибн Сина, поэтика, стиль, выражение, жанр, поэзия, литературоведение.*

Annotation. This article presents a comparative theoretical analysis of the literary views of Abdurauf Fitrat and Abu Ali Ibn Sina. Fitrat's ideas on literary structure, style, and expression are examined alongside Ibn Sina's poetic theory. The study reveals the continuity between Fitrat's literary thought and classical Eastern poetics.

Keywords: *Fitrat, Ibn Sina, poetics, style, expression, genre, literature, poetry*

Abdurauf Fitrat va Abu Ali ibn Sino Sharq adabiy-estetik tafakkurida muhim o'rin tutgan mutafakkirlar hisoblanadi. Ularning ijodiy faoliyati turli davrlarga mansub bo'lsa-da, adabiyot va badiiy tafakkur mohiyatini anglash borasidagi qarashlari o'zaro yaqinlik kasb etadi. Fitrat jadid davri adabiyotshunosligining yirik namoyandasi sifatida adabiyot nazariyasini tizimlashtirishga harakat qilgan bo'lsa, Ibn Sino esa klassik Sharq poetikasini falsafiy asosda rivojlantirgan mutafakkirdir.

Fitratning "Adabiyot qoidolari" asari o'zbek adabiyotshunosligida nazariy fikrning shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Asarda badiiy asarning tuzilishi, ifoda shakllari, janrlar, uslub va badiiy til masalalari izchil yoritilgan. Fitrat badiiy asarni tahlil qilishda uning asosiy tarkibiy qismlarini: mavzu, mundarija, tartib va ifodani ajratib ko'rsatadi [Fitrat, 1995: 9]. Bu elementlar orqali u badiiy asarning ichki mexanizmini ochishga harakat qiladi.

Fitrat nazariyasida ayniqsa "ifoda" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Uning fikricha, badiiy asarning qiymati undagi mazmunni qanday ifodalash bilan belgilanadi. Ya'ni, so'z tanlash, tasvir vositalari, uslub va ohang orqali asar o'z estetik ta'sirini hosil qiladi. Fitrat bu jarayonni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy misollar orqali ham tushuntiradi.

Uslub masalasida Fitrat o'ziga xos yondashuvni ilgari suradi. U "milliy uslub" tushunchasini mutlaq hodisa sifatida emas, balki nisbiy kategoriya sifatida talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha, har bir adibning uslubi uning shaxsiy ijodiy imkoniyatlari bilan belgilanadi [Fitrat, 1995: 11]. Shu bois Fitrat uslubni davr yoki millat bilan emas, balki ijodkor shaxs bilan bog'lashni maqsadga muvofiq deb biladi.

Fitrat adabiy nutqni ifoda shakliga ko'ra "tizim" va "sochim"ga ajratadi [Fitrat, 1995: 17]. "Tizim" she'riy nutqni, "sochim" esa nasriy nutqni anglatadi. Bu tasnif orqali u adabiy tur va janr masalalarini izohlashga urinadi. Shu bilan birga, u g'azal, qasida, masnaviy kabi mumtoz janrlarning nazariy asoslarini ham tushuntiradi.

Abu Ali ibn Sinoning adabiyotshunoslikka oid qarashlari esa uning "She'r san'ati" asarida mujassam. U she'rni obrazli, ritmik va ohangdor nutq sifatida talqin qiladi. Ibn Sino uchun she'rning asosiy vazifasi inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishdir [Ibn Sino, 2003: 122]. Bu ta'sir mantiqiy isbot orqali emas, balki tasavvur va his-tuyg'ular orqali amalga oshadi. Allomaning bu asari "ash-Shifo"ning mantiq bo'limida kelgan. "Ash-Shifo"dagi mantiqning to'qqizinchi

bo'lagi, ya'ni kitobi mana shu "She'r san'ati"dan iboratdir. Bu asar orqali muallifning adabiyot borasidagi qarashlari, munosabatlari bilinadi.

Ibn Sino she'riyatni ritorikadan farqlaydi. Uning fikricha, ritorika ishontirishga xizmat qilsa, she'r tasavvur uyg'otadi va estetik kechinma hosil qiladi [Ibn Sino, 2003: 125]. Bu jarayon keyinchalik "takhyil" tushunchasi bilan izohlanadi. Ya'ni she'r inson ongida obraz yaratadi va shu orqali ta'sir qiladi.

Ibn Sino ta'biricha, she'rni she'r qilgan narsa tasvir timsollashtirishdir. Shu holat bo'lsagina she'r o'z vazifasini o'tay oladi.

Ko'rinadiki, deydi Ibn Sino, she'r o'z ta'sir kuchini ko'rsatib, kishini bezovta qilsa ham, lekin u bu ishi bilan odamda hali ishonch paydo qilmaydi. Ba'zida she'rda aytilgan gapning yolg'on iborat ekanini ochiq-oydin ko'rinib turadi. Lekin shunisi ham borki, yolg'on bo'lsa ham taqlid nafs harakatga keladi.

"She'r, – deydi Ibn Sino, – odamlarni taajjubga solish uchun aytilishi mumkin, yana shunisi ham borki, she'r ijtimoiy foydali maqsadlar uchun yoziladi".

Yunon she'rlari ham, deydi Ibn Sino davom etib, xuddi shu maqsadlarni ro'yobga chiqargan. Xitoba ritorika bilan she'r shu maqsadlarni amalga oshirish uchun yaratiladi. Lekin shunisi ham borki, ritorika tasdiqni ishlatadi, she'r esa obrazli fikr qilishni ishlatadi.

Bu yerda Ibn Sino she'riyatdagi badiiylikni "tashbihga sazovor" deb ataydi. Shu bilan birga, Ibn Sino she'riyatda odamni o'ziga tortadigan, ba'zanuni hayratda qoldiradigan tomonlar borligini, she'rni eshitgan odam unda aytilmoqchi bo'lgan mazmunni to'la anglab olmasligi ham mumkinligini aytadi.

Ibn Sino fikricha, shoirning o'ziga xos uslubi ishlatgani katta ahamiyat kasb etadi. U she'riyatdagi o'xshatish, obrazli qilib fikrni ifodalashga katta e'tibor beradi. Buni u she'rning bezagini, ma'nosini boyitadigan uslub deb biladi. Bunday mazmunda bo'lgan har qanday she'rda o'xshatish bilan yozilganlik asosiy ahamiyat kasb etadi. Undan tashqari, Ibn Sino ta'kidlashicha, she'riyatda ko'pincha o'xshatishning ijobiy tomoni (muallif ijobiy baholagan jihati) ko'rsatiladi, deydi Ibn Sino, bir narsaga o'xshatish qilinganda uning ijobiy tomonlari vasf etiladi, ya'ni uning kamchiliklari ko'rsatilmaydi.

Abdurauf Fitrat eski madrasaviy an'analardan meros bo'lib qolgan bir noto'g'ri qarashni tanqid qiladi. Uning ta'kidlashicha, ilgari she'rni faqat vazn va qofiyaga ega bo'lgan so'zlar majmuyi sifatida tushunish keng tarqalgan bo'lgan. Shu sababli qofiyali va vaznli har qanday matn she'r deb baholangan. Biroq Fitrat bu yondashuvni asossiz deb hisoblaydi. U Sufi Olloyor asarlaridan keltirilgan misollar orqali shuni ko'rsatadiki, vazn va qofiyaga ega bo'lishning o'zi matnni she'r darajasiga ko'tarmaydi, bunday parchalar ko'pincha oddiy nazm shakli bo'lib qoladi [Fitrat, 1995: 22].

Fitratning fikricha, she'riyatning mohiyati tashqi shakliy unsurlar – vazn va qofiyada emas, balki uning ichki badiiy xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ayrim vaznli va qofiyali matnlar she'r hisoblanmasligi mumkin, aksincha, vazn va qofiyadan xoli bo'lgan, ya'ni nasriy ko'rinishda yozilgan asarlar ham chin ma'noda she'r bo'lishi ehtimoldan xoli emas. U Cho'lponning ayrim asarlarini misol keltirib, ularning tashqi shakl jihatidan nasrga yaqin bo'lishiga qaramay, badiiy-estetik qiymati jihatidan haqiqiy she'r ekanini ta'kidlaydi. Shu tariqa Fitrat she'rni aniqlashda shakliy belgilar emas, balki uning badiiylik darajasi va ruhiy ta'sir kuchi asosiy mezon bo'lishi lozimligini ilgari suradi.

Fitrat va Ibn Sino qarashlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikkala mutafakkir ham adabiyotning mohiyatini ifoda va ta'sir orqali anglashga intiladi. Ibn Sino bu jarayonning psixologik-estetik mexanizmini ochib bergan bo'lsa, Fitrat uni nazariy kategoriyalar orqali tizimlashtiradi.

Masalan, Ibn Sinodagi "takhyil" tushunchasi Fitratdagi "ifoda" konsepsiyasi bilan mazmunan uyg'unlashadi. Har ikkisi ham badiiy nutqning asosiy vazifasi inson ongiga ta'sir qilish ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Fitratning uslub haqidagi qarashlari ham Ibn Sinoning ijodkor shaxs haqidagi fikrlari bilan yaqinlik kasb etadi.

Fitrat "so'z o'yinlari", "tasviriy vositalar", "majoz", "kinoya" kabi badiiy unsurlarni alohida tahlil qiladi. Bu jihatdan u Sharq mumtoz poetikasi an'alarini davom ettiradi. Ibn Sino esa badiiy tasvirning mohiyatini umumiy falsafiy asosda tushuntiradi.

Har ikkala olimning qarashlarida adabiyot inson ruhiyati bilan bevosita bog'liq hodisa sifatida talqin etiladi. Adabiyot nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki inson tafakkurini boyitadi, uning hissiy dunyosini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, Fitrat va Abu Ali ibn Sinoning adabiyotshunoslikka oid qarashlari Sharq poetik tafakkurining izchil rivojini aks ettiradi. Ibn Sino tomonidan asoslangan nazariy tamoyillar Fitrat ijodida yangi davr adabiyotshunosligi asosida qayta talqin qilinib, boyitilgan. Bu esa ularning qarashlarini o'zaro uzviylikda o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
2. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent, 1926.
3. Irisov A. Abu Ali ibn Sino: hayoti va ijodiy merosi. – Toshkent: Fan, 1980.
4. Ибн Сино. Избранное: в 2-х томах. – Душанбе–Ашхабад, 2003.
5. Forobiy Abu Nasr. Shoirlar san'ati qonunlari haqida kitob. – Toshkent, 1979.
6. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. – Toshkent, 2007.
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/mutavakkil-burhonov-fitrat-haqida-xotiralar.html>

FITRAT VA MASHRABSHUNOSLIK

Ravshanov Ozodbek Xojimurod o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti
mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqola professor Abdurauf Fitratning Boborahim Mashrab hayoti va ijodiga bag'ishlangan ilmiy maqolasiga bag'ishadi. Unda olimning Mashrab hayoti va ijodi, xususan, "Mabdai nur" asari muallifligi, shuningdek, Mashrab ijodining o'rganilishi haqidagi qarashlari tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda olimning Mashrab she'rlari poetikasi, ijodkor uslubi, adabiy ta'sir va shunga o'xshash bir qancha rakursdan amalga oshirilgan tadqiqotlari va uning ilmiy ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Mashrab, "Mabdai nur", masnaviy, manqaba, tasavvuf, tariqat, qalandariylik.*